

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Orolbo‘yi havzasida suv resurslarini iqlim o‘zgarishiga mos holda boshqarish” loyihasi bo‘yicha ma’lumot

Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-sentabrdagi PQ-381-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Osiyo taraqqiyot banki o‘rtasida 2022-yil 3-noyabrda 150,0 mln. AQSh dollari miqdorida Qarz bitimi imzolangan.

Kutilayotgan maqsad:

Loyiha doirasida jami 192 ming gektardan ziyod sug‘oriladigan yerlarning, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 100 ming, Xorazm viloyatida 29 ming, Buxoro viloyatida 44,1 ming va Surxondaryo viloyatida 18,6 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning suv ta‘minoti yaxshilanadi hamda qishloq xo‘jaligi foydalanishidan chiqqan jami 10 ming gektardan ziyod yer qayta foydalanishga kiritiladi.

Loyiha 2 ta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich:

Buxoro viloyatida (“Jondor” va “Shaxrislom” kanallari):

27,5 km uzunlikdagi kanal betonlashtiriladi;

74 dona gidrotexnika inshooti qayta tiklanadi.

Surxondaryo viloyatida (“Bobotog” va MK-1-1 kanallari):

20,6 km uzunlikdagi kanal betonlashtiriladi;

59 dona gidrotexnika inshooti qayta tiklanadi.

Ikkinchi bosqich:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida (“Kegeyli” va “Quyi kegeyli” kanali):

52,3 km uzunlikdagi kanal betonlashtiriladi;

106 dona gidrotexnika inshooti qayta tiklanadi.

Xorazm viloyatida (R-8 va “Ostona” kanallari):

33,6 km uzunlikdagi kanal betonlashtiriladi;

77 dona gidrotexnik inshootlar qayta tiklanadi.

Birinchi bosqich bo‘yicha xalqaro tender savdolari asosida Pudratchilar aniqlanib, 32 mln. dollarlik qurilish shartnomalari imzolandi. “Jondor” va “Bobotog” magistral kanallarida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.





Bugungi qadar umumiy uzunlikda 67,5 km kanal rekonstruksiya qilindi, shundan 17,5 km qismida beton yotqizildi. 87 dona gidrotexnika inshooti rukonstruksiya qilindi va qurildi. 2179,7 ming m³ tuproq ishlari va 63,7 ming m³ beton ishlari bajarildi.

Konsultant tomonidan loyihaning 2-bosqichini amalga oshirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Kegeyli" hamda Xorazm viloyatidagi R-8 magistral kanallarini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari (TIA) ishlab chiqildi. TIA belgilangan tartibda tegishli vazirlik va idoralarga xulosa olish uchun kiritilgan.

Shu bilan birga "Kegeyli" va R-8 magistral kanallarini modernizatsiya qilish bo'yicha Tender hujjatlari va Ishchi hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari loyiha doirasida qayta tiklanadigan barcha kanal va inshootlarga suvni avtomatik boshqaruvchi zamonaviy SCADA tizimi o'rnatiladi.

O'tkaziladigan tadbirlar natijasida "Jondor" kanalining suv o'tkazish sig'imi 88 foizga (amalda 78%), "Bobotog'" kanalida 89 foizga (amalda 78%), "Kegeyli" kanalida 95 foizga (amalda 70%), R-8 kanalida 95 foizga (amalda 71%) ko'tariladi.

Kanallarda elektr energiyasi tejalishi natijasida (soatiga 140 mln. kVt. dan 84 mln. kVt. gacha yoki 40 foizga) yillik ekspluatatsiya xarajatlari 45 mlrd. so'mga qisqaradi.

Loyiha doirasida amalga oshiriladigan barcha tender tanlovlari shaffofligini ta'minlash maqsadida amaldagi xaridlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga binoan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti va boshqa internet rasmiy sahifalariga joylashtirish orqali amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.